MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 2-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

XORAZM DOSTONCHILIK MAKTABIDA AN’ANAVIY IJRO USLUBI VA MUSIQIY-POETIK TALQINNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

(Qurbannazar Abdullayev — Bola baxshi ijodi misolida)

Temurbek Yusupov,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
“Baxshi va doston ijrochiligi” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: Asatillo Sunnatillayev,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
“Doston ijrochiligi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Xorazm dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari, an’anaviy ijro uslubi, dostonlarning musiqiy-poetik tuzilishi hamda badiiy talqin xususiyatlari folklorshunoslik va musiqashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Xorazm baxshichilik an’analarida doston matni, musiqiy ohang, cholg‘u jo‘rligi va ijrochilik mahoratining o‘zaro uyg‘unligi, epik asarlardagi she’riy va nasriy qismlarning kompozitsion vazifalari tahlil qilinadi. Xususan, Xorazm dostonchilik maktabining taniqli namoyandasi Qurbannazar Abdullayev (Bola baxshi) ijodiy merosi misolida an’anaviy doston ijrochiligining badiiy-estetik mohiyati, repertuar xususiyatlari va ijrochilik an’analarining davomiyligi yoritiladi. Shuningdek, doston ijrochiligida ochiq ovoz uslubi, musiqiy intonatsiya, ritmik tuzilma, kuy va she’riy matn uyg‘unligining ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, struktur-poetik va musiqiy-tahliliy yondashuvlardan foydalanib, Xorazm dostonchilik maktabining milliy epik san’at taraqqiyotidagi o‘rni hamda nomoddiy madaniy meros sifatidagi ahamiyati asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm dostonchilik maktabi, baxshichilik san’ati, Bola baxshi, Qurbannazar Abdullayev, doston poetikasi, musiqiy talqin, ijro uslubi, epik an’ana, doston nomalari, ustoz-shogird an’anasi.*

Аннотация. *В данной статье с позиций фольклористики и музыковедения исследуются процессы формирования и развития Хорезмской школы эпического сказительства, традиционный исполнительский стиль, музыкально-поэтическая структура дастанов и особенности их художественной интерпретации. Анализируется взаимосвязь эпического текста, музыкальной мелодии, инструментального сопровождения и исполнительского мастерства в традициях хорезмского бахшичества, а также композиционные функции стихотворных и прозаических частей эпических произведений. В частности, на примере творческого наследия Курбанназара Абдуллаева (Бола бахши), известного представителя Хорезмской школы дастанного исполнительства, раскрываются художественно-эстетическая сущность традиционного эпического искусства, особенности репертуара и преемственность исполнительских традиций. Особое внимание уделяется значению открытой манеры пения, музыкальной интонации, ритмической структуры, а также взаимосвязи мелодии и поэтического текста в процессе исполнения дастанов. На основе сравнительно-исторического, описательного, структурно-поэтического и музыкально-аналитического методов обосновываются роль Хорезмской школы дастанного*

исполнительства в развитии национального эпического искусства и её значение как нематериального культурного наследия.

Ключевые слова: *Хорезмская школа дастанного исполнительства, искусство бахши, Бола бахши, Курбанназар Абдуллаев, поэтика дастана, музыкальная интерпретация, исполнительский стиль, эпическая традиция, дастанные напевы, традиция «устоз-шогирд» (наставник — ученик).*

Abstract. *This article examines the formation and development of the Khorezm epic storytelling school, its traditional performance styles, musical-poetic structures, and artistic interpretation from the perspectives of folklore studies and musicology. Particular attention is paid to the interaction between epic narratives, musical melodies, instrumental accompaniment, and performance techniques, as well as the compositional functions of poetic and prose passages. The creative legacy of Qurbannazar Abdullayev (Bola Bakhshi), a prominent representative of the Khorezm epic tradition, serves as a case study for exploring the artistic and aesthetic characteristics, repertoire, and continuity of traditional epic performance. The article also discusses the role of open-voice singing, musical intonation, rhythmic organization, and the relationship between poetic texts and melodies. Drawing on comparative-historical, descriptive, structural-poetic, and musicological approaches, the study highlights the significance of the Khorezm epic storytelling school in the development of national epic art and the safeguarding of intangible cultural heritage.*

Keywords: *Khorezm epic storytelling school, bakhshi art, Bola Bakhshi, Qurbannazar Abdullayev, epic poetics, musical interpretation, performance style, epic tradition, epic melodies, master–apprentice tradition.*

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik ma’naviy-madaniy merosida dostonchilik san’ati alohida o‘rin egallaydi. Xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tafakkuri, estetik qarashlari va axloqiy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan dostonlar og‘zaki badiiy ijodning murakkab janrlaridan biri hisoblanadi. Dostonchilik san’ati nafaqat epik matnlarni ijro etish, balki musiqiy tafakkur, badiiy ifoda, ijrochilik mahorati hamda avlodlararo madaniy tajriba uzatilishini qamrab oluvchi yaxlit ijodiy jarayondir.

Baxshichilik san’atining xalqaro miqyosda e’tirof etilishi ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshirdi. Jumladan, 2021-yilda O‘zbekistonning “Baxshichilik san’ati” elementi UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi. Mazkur e’tirof baxshichilik merosini muhofaza qilish, uning ijrochilik an’analarini ilmiy hujjatlashtirish va yosh avlodga yetkazish masalalarining ahamiyatini ko‘rsatadi.

O‘zbek dostonchilik an’analari tarixan turli hududiy maktablar doirasida rivojlanib, ularning har biri o‘ziga xos ijro uslubi, repertuari, badiiy tasvir vositalari va musiqiy ifoda xususiyatlari bilan ajralib turgan. Jumladan, Surxondaryo–Qashqadaryo, Qoraqalpoq va Xorazm dostonchilik an’analari milliy epik tafakkurning rang-barang ko‘rinishlarini namoyon etadi. Mazkur maktablar orasida Xorazm dostonchilik an’anasi musiqiylikning ustuvorligi, ochiq ovozda kuylash, cholg‘u ansambli jo‘rligida ijro etish hamda she’riy va nasriy qismlarning o‘ziga xos kompozitsion munosabati bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar Xorazm dostonchiligini nafaqat folklor matni, balki murakkab musiqiy-badiiy hodisa sifatida o‘rganishni taqozo etadi.

Xorazm vohasi qadimdan xalq ogʻzaki ijodi, anʼanaviy musiqa, ijrochilik sanʼati va adabiy tafakkur rivojlangan hududlardan biri hisoblanadi. Ushbu madaniy makonda shakllangan dostonchilik anʼanalari xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy munosabatlari, maʼnaviy qadriyatlari va badiiy-estetik qarashlarini oʻzida mujassam etadi. Xorazm dostonchilik maktabining shakllanishida ogʻzaki va yozma adabiy anʼanalarning oʻzaro taʼsiri muhim ahamiyat kasb etgan. Mazkur maktabda dostonlarning xalq ogʻzaki ijodi doirasida yashashi bilan bir qatorda, ularning qoʻlyozma va yozma variantlarining mavjudligi epik matnning saqlanishi va uzatilishida oʻziga xos tizim yuzaga kelganligini koʻrsatadi.

Xorazm dostonchiligida epik voqealarning rivojlanishi musiqiy va poetik ifoda vositalari bilan chambarchas bogʻliq. Doston matnining nasriy qismlari voqealar ketma-ketligini, qahramonlar harakati va syujet rivojini bayon qilishga xizmat qilsa, sheʼriy qismlar qahramonlarning ruhiy kechinmalari, his-tuygʻulari va badiiy-estetik munosabatlarini ifodalashda muhim vazifa bajaradi. Bu jihat Xorazm dostonchiligida musiqiy ijroning epik asar kompozitsiyasini tashkil etuvchi asosiy vositalardan biri ekanligini koʻrsatadi. Xorazm dostonchilik maktabiga oid ilmiy tavsiflarda ham musiqa yetakchiligi, sheʼriy va nasriy qismlarning izchil almashinuvi, cholgʻu ansambli ishtiroki alohida qayd etilgan.

Xorazm baxshichilik maktabining anʼanaviy repertuarida “Goʻroʻgʻli” turkumiga mansub dostonlar, “Oshiq Gʻarib va Shohsanam”, “Oshiq Mahmud”, “Bozirgon”, “Avazxon”, “Xirmondali”, “Sayyodxon va Hamro” singari epik asarlar muhim oʻrin tutadi. Ularning syujet va obrazlar tizimida ishq-muhabbat, mardlik, vafodorlik, qahramonlik, adolat va insoniy fazilatlar kabi gʻoyalar badiiy ifodasini topgan. Ayniqsa, ishqiy-romantik yoʻnalishdagi dostonlarning Xorazm ijrochilik repertuarida keng tarqalganligi mazkur hudud epik tafakkurining oʻziga xos xususiyatlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Xorazm dostonchilik maktabining eng muhim xususiyatlaridan biri dostonlarning ochiq ovozda, kuychan va musiqiy ifodaga boy uslubda ijro etilishidir.

Ayrim boshqa hududiy dostonchilik anʼanalarida boʻgʻiq ovozda kuylash va doʻmbira joʻrligi ustuvor boʻlsa, Xorazm baxshichiligida ochiq ovoz, dutor yoki tor hamda gʻijjak, boʻlamon va boshqa cholgʻular ishtirokidagi ansambl ijrochiligi muhim oʻrin egallaydi. Bu farqlar ijro texnikasigagina emas, balki dostonning badiiy talqini va tinglovchi tomonidan qabul qilinishiga ham taʼsir koʻrsatadi.

Ochiq ovoz uslubi baxshidan keng nafas, barqaror ovoz yuritish, soʻzlarning aniq talaffuzi va musiqiy jumlalarni ifodali yakunlash mahoratini talab qiladi. Bunda doston matnining mazmuni bilan musiqiy ohangning uygʻunlashuvi ijroning taʼsirchanligini belgilaydi.

Xorazm dostonchiligidagi ansambl ijrosi ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Bunday ijro jarayonida baxshi asosiy epik hikoyachi va kuylovchi sifatida namoyon boʻlsa, cholgʻuchilar musiqiy joʻrlik orqali umumiy ijro yaxlitligini taʼminlaydi.

Cholgʻu joʻrligi bir necha badiiy vazifani bajaradi. Jumladan, u kuyning intonatsion tayanchini shakllantiradi, ritmik izchillikni saqlaydi, sheʼriy bandlar orasidagi musiqiy oʻtishlarni taʼminlaydi va dostonning emotsional taʼsirchanligini kuchaytiradi. Shu jihatdan Xorazm dostonchilik maktabida musiqiy ijro epik asarning tashqi bezagi emas, balki uning badiiy-kompozitsion tuzilishini shakllantiruvchi muhim tarkibiy unsur hisoblanadi.

Xorazm dostonchiligida musiqiy va poetik komponentlar o‘zaro bog‘liq yaxlit badiiy tizimni tashkil etadi. Dostonning she’riy matni musiqiy ohang orqali ifodalanishi natijasida undagi obrazlar, ruhiy kechinmalar va badiiy mazmun yangi estetik ta’sir kuchiga ega bo‘ladi.

Musiqiy-poetik talqin, avvalo, so‘z va ohang munosabatida namoyon bo‘ladi. She’riy matnning vazni, ritmik tuzilishi, qofiyalanish tizimi va sintaktik qurilishi musiqiy jumlalarning shakllanishiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Xorazm dostonchilik an’anasida doston kuylari va musiqiy parchalar ko‘pincha “noma” tushunchasi bilan bog‘liq holda tavsiflanadi. Doston nomalari ma’lum poetik matnlarni an’anaviy ohang asosida kuylashga xizmat qiluvchi musiqiy shakllar sifatida ahamiyatlidir.

B.Matyoqubovning “Doston navolari” nomli ilmiy nashri hamda doston kuy-nomalarini o‘rgatishga bag‘ishlangan keyingi tadqiqotlarda Xorazm dostonlaridagi musiqiy materialning ijrochilik va pedagogik ahamiyati yoritilgan. Demak, Xorazm dostonchilik maktabining musiqiy-poetik talqinida kuy, ritm, she’riy matn, ijrochilik ifodasi va epik kompozitsiya o‘zaro ta’sirlashuvchi badiiy komponentlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Xorazm baxshichilik san’atining yirik namoyandalaridan biri Qurbannazar Abdullayev (1899–1994) xalq orasida Bola baxshi nomi bilan tanilgan. U Xorazm dostonchilik maktabining an’analarini davom ettirgan va epik repertuarni keyingi avlodlarga yetkazishda muhim rol o‘ynagan san’atkorlardan biridir.

Biografik manbalarda uning Jumanazar baxshidan saboq olgani, yoshligidan doston kuylashga kirishgani hamda repertuarida yigirmaga yaqin epik asar bo‘lgani qayd etiladi. Shuningdek, 1970-yilda yosh ijrochilarga doston aytishni o‘rgatish maktabini tashkil qilgani to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud.

Bola baxshi repertuarining rang-barangligi uning ijodiy merosini folklorshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Oshiq Mahmud”, “Bozirgon”, “Avazxon”, “Xirmondali”, “Qirqming” kabi dostonlarning uning repertuarida mavjudligi Xorazm dostonchilik maktabidagi turli epik syujet va obrazlar tizimini tadqiq etish imkonini beradi.

Bola baxshi ijodiy merosini o‘rganishda dostonlarning yozib olinishi va nashr etilishi alohida manbashunoslik ahamiyatiga ega. Jumladan, “Bozirgon” hamda “Avazxon” dostonlarining undan yozib olinib, nashrga tayyorlangani haqida ma’lumotlar saqlangan.

Mazkur dostonlar ijro variantlarini kelgusida chuqur tadqiq etishda she’riy va nasriy qismlarning mutanosibligi, kompozitsion qurilishi, takroriy poetik formulalar, qahramonlar nutqi va musiqiy aytimlarning badiiy vazifalariga e’tibor qaratish zarur.

Bola baxshining ijodiy merosini faqat repertuardagi dostonlar soni yoki ijrochilik faoliyati bilan baholash yetarli emas. Uning Xorazm dostonchilik an’analari rivojiga qo‘shgan hissasini tarixiy ijro tajribasi, epik repertuarni saqlash, shogirdlar tayyorlash hamda an’anaviy bilimlarning davomiyligini ta’minlash bilan bog‘liq holda o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtayi nazardan, Bola baxshi ijodiy merosi Xorazm dostonchilik maktabining tarixiy va badiiy taraqqiyotini yorituvchi muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Dostonchilik san’atining asosiy badiiy xususiyatlaridan biri epik voqealar rivoji va qahramonlar ruhiy holatining o‘zaro uyg‘unlikda tasvirlanishidir.

Xorazm dostonlarida ishqiy-romantik va qahramonlik motivlari, sadoqat, adolat, vafodorlik, jasorat hamda insoniy fazilatlar bilan bog‘liq badiiy g‘oyalar muhim o‘rin egallaydi.

Epik asarning poetik tuzilishida qahramonlar dialogi, monologik ifodalar, an’anaviy tasvir vositalari, takrorlar, mubolag‘alar va ramziy obrazlar badiiy-estetik mazmunni shakllantiradi. Bu vositalarning ijrodagi ifodalanishi baxshining musiqiy va og‘zaki hikoyachilik mahorati bilan chambarchas bog‘liq.

Dostonning nasriy qismlari epik voqealarni izchil bayon etish, makon va zamon munosabatlarini belgilash hamda syujet rivojini ta’minlashga xizmat qiladi. She’riy qismlar esa ko‘pincha qahramonlarning emotsional holatini chuqurroq ochishga yordam beradi.

Natijada epik matnda ikki asosiy badiiy vazifa yuzaga keladi: voqelikni hikoya qilish va ruhiy kechinmani musiqiy-poetik ifodalash. Mazkur ikki vazifaning birlashuvi doston ijrosining dramaturgik yaxlitligini yuzaga keltiradi.

Bola baxshi repertuaridagi dostonlarni shu yondashuv asosida o‘rganish ularning poetik qurilishi bilan an’anaviy musiqiy talqini o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlashga xizmat qilishi mumkin.

Baxshichilik san’atining tarixiy davomiyligini ta’minlovchi muhim omillardan biri ustoz-shogird an’anasi hisoblanadi. Mazkur tizimda ijrochilik tajribasi, epik repertuar, musiqiy ohanglar, ovoz imkoniyatlaridan foydalanish usullari va badiiy talqin mahorati amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘zlashtiriladi.

Ustoz-shogird munosabatlarining o‘ziga xosligi shundaki, shogird faqat tayyor doston matnini yodlash bilan cheklanmaydi. U epik ijroning estetik tamoyillarini, tinglovchi bilan muloqot qilish madaniyatini, musiqiy jumlalarni shakllantirishni va ijro jarayonidagi badiiy ifoda vositalaridan foydalanishni ham o‘rganadi. Bola baxshining ustoz sifatidagi faoliyati mazkur an’anani tarixiy jihatdan o‘rganishda ahamiyatlidir. Uning yosh baxshilarni tayyorlashga qaratilgan faoliyati Xorazm ijrochilik merosining uzatilish jarayonini tadqiq qilish uchun muhim ma’lumot beradi.

Bugungi kunda dostonchilikni ta’lim tizimida o‘qitishda an’anaviy ustoz-shogird yondashuvini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb hisoblanadi. Xususan, dostonlarning audio va video yozuvlarini tizimlashtirish, kuy-nomalarni notaga olish, ijrochilik uslublarining elektron kataloglarini yaratish hamda ta’lim jarayonida qiyosiy tinglash metodidan foydalanish samarali natijalar berishi mumkin.

Bunday yondashuv Xorazm dostonchilik maktabining badiiy xususiyatlarini saqlash bilan birga, uning ilmiy o‘rganilishi va yosh ijrochilar tomonidan o‘zlashtirilishiga ham xizmat qiladi. Xorazm dostonchilik maktabi o‘zbek xalq og‘zaki ijodining tarixiy taraqqiyotida shakllangan, musiqiy-poetik ifoda vositalari va o‘ziga xos ijrochilik an’analariga ega bo‘lgan muhim madaniy hodisalardan biridir. Uning ochiq ovozda kuylash, cholg‘u ansambli jo‘rligida ijro etish, kuy-nomalarning rang-barangligi, she’riy va nasriy qismlarning o‘zaro uyg‘unligi kabi xususiyatlari milliy dostonchilik san’atining hududiy uslubiy xilma-xilligini belgilaydi.

Tadqiqot davomida Xorazm dostonchilik maktabida musiqa va poetik matn munosabati epik asarning badiiy-kompozitsion tuzilishini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ekanligi nazariy jihatdan asoslandi. Xususan, musiqiy ohang qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ifodalash, dramatik vaziyatlarning ta’sirchanligini oshirish va epik voqealar rivojining badiiy yaxlitligini ta’minlashda muhim vazifa bajarishi ko‘rsatildi.

Qurbannazar Abdullayev — Bola baxshining ijodiy merosi Xorazm dostonchilik an’analarining tarixiy davomiyligini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Uning repertuaridagi “Bozirgon”, “Avazxon”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Oshiq Mahmud” va boshqa dostonlar xalq epik tafakkurining badiiy xususiyatlarini, an’anaviy ijrochilik tajribasini hamda folklor merosining avloddan-avlodga uzatilish jarayonlarini tadqiq etish uchun muhim material hisoblanadi. Shuningdek, Bola baxshining ustozlik faoliyati dostonchilik san’atining nafaqat ijodiy, balki pedagogik va ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini ham namoyon etadi. Uning ijrochilik merosini ilmiy o‘rganish, mavjud yozuvlarni aniqlash, tizimlashtirish, raqamlashtirish va ta’lim jarayoniga joriy etish an’anaviy dostonchilik maktabining kelajak avlodlarga yetkazilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Xorazm dostonchilik maktabining musiqiy-poetik xususiyatlarini kompleks o‘rganish o‘zbek folklorshunosligi va musiqashunosligining dolzarb ilmiy vazifalaridan biridir. Ushbu yo‘nalishda epik matnlarning variantlari, kuy-nomalar tizimi, cholg‘u jo‘rligi, ijrochilik uslublari va ustoz-shogird munosabatlarini o‘zaro bog‘liq holda tadqiq etish milliy baxshichilik san’atining badiiy-estetik mohiyatini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ro‘zimboyev S. Xorazm dostonlari. — Toshkent: Fan, 1985.
2. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. — Toshkent, 1979.
3. Matyoqubov B. Doston navolari. Ilmiy nashr. Mas’ul muharrir R. Yunusov. — Toshkent: Respublika metodika va axborot markazi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, 2009.
4. Matyoqubov B. Dostonlarning musiqiy xususiyatlarini o‘rganish. O‘quv qo‘llanma. I kitob. — Toshkent, 2024.
5. Saidvaliyeva M., Shukurjonova X. Xorazm dostonchilik maktablarining adabiy merosi // Yangi O‘zbekiston akademik tadqiqotlari jurnali. — 2025.
6. Yusupbayev M. Doston kuy-nomalarini o‘rgatishning amaliy asoslari // Art and Design: Social Science. — 2026. — 6-jild, 5-son.
7. Axmedova O., Bekberganov D. “Baziryon” dostonining musiqiy-nazariy talqini // Worldwide Cross-Disciplinary Research. — 2026.
8. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. “Bola baxshi” va “Xorazm dostonchilik maktabi” maqolalari.
9. UNESCO. Bakhshi Art. Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity. — 2021.